

**Xalqaro Nordik universitetida "QADRING BALAND BO'LSIN, ONA
TILIM!" nomli tadbirt to'g'risida**

MA'LUMOTNOMA

3.302.xonasida

21.11.2024-yil

21-Oktabr 21-oktyabr O'zbek tili bayrami kuni Xalqaro Nordik Universitetida ko'tarinki ruhda nishonlandi. Ertalabdan xil turli viktorinalar bilan xodimlarni ishga kelishini kutib oldik. Savollarga to'g'ri javob berganlarga, tilingiz shirin bo'lsin degan ma'noda shokoladlar sovg'a qildik.





Qadring baland bo‘lsin, ONA TILIM!

Nordik universitetida O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 35 yilligi keng bayram qilindi. Universitet rektori Sherzod Mustafakulov barchani til bayrami bilan tabrikladi. Har bir sohada ona tili sehri bilangina yutuqlarga erishilishini alohida e’tirof etdi. Bayram tadbiriiga O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari, shoirlar taklif etildilar. Jumladan, Bobur Bobomurod, Tursun Ali talaba-yoshlarni tilimiz barhayotligi va sofligini saqlashda mas’ullikka chaqirdilar. Adabiy anjumanda ona tilimiz uchun jon tikkan xalqimizning buyuk farzandlari, metin iroda sohiblari nomlari ehtirom bilan yodga olindi, ular hayotining ibratli jihatlariga nazar solindi. Universitetning bo‘lajak jurnalistlari she’rlar o‘qidilar, musiqa yo‘nalishi talabalari kuylar ijro etdilar. Daryodil ijodkor - estrada qo‘schiqchisi, bastakor Shuhrat Daryo xalq orasida mashhur qo‘schiqlarini ustozlar va talabalar jo‘rligida kuyladi. U yangi qo‘shic‘i premyerasini talabalar davrasida o‘tkazdi.





"Ona tili- millat ruhi" nomli ommaviy diktantlar tanlovida universitetimizdan 70 nafar talaba ishtirok etdi. G'oliblar 21-oktyabr "QADRING BALAND BO'L SIN, ONA TILIM!" nomli tadbirda taqdirlanadilar.

Diktant g'oliblari tantanali taqdirlandilar:

1-o'rin Mirqodirova Dilafruz

2-o'rin Masariddinova Sevinchbonu

2-o'rin Maxmudova Xusniyabonu

3-o'rinni Shoyakubova Malika

3-o'rinni Rashidov Ibrohim



Ma'naviy-ma'rifiy

ishlar bo'yicha dekan muovini:

X.Mamajanova